

**KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNI  
RIVOJLANTIRISHNING INSTITUTSIONAL TAHLILI**

**Imamov Sanjarali Tolkinovich**

**Annotatsiya.** *Ushbu maqolada kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishda institutsional omillarning roli va ahamiyati tahlil qilinadi. Mavzuga doir asosiy e’tibor iqtisodiyotni liberallashtirish, qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish, huquqiy-me’yoriy baza va moliyaviy institutlarning faoliyatini takomillastirish masalalariga qaratilgan.*

**Kalit so‘zlar:** *Kichik biznes, xususiy tadbirkorlik, institutsional rivojlanish, iqtisodiy institutlar, tadbirkorlik muhiti, davlat qo‘llab-quvvatlovi, normativ-huquqiy baza, moliyaviy infratuzilma.*

**KIRISH**

Jahonning rivojlangan mamlakatlar tajribasi shuni ko‘rsatadiki, davlatning ijtimoiy-iqtisodiy siyosati markazida aholi farovonligi va turmush darajasini oshirish masalalari turadi. Bugungi kunga qadar shakllanib kelgan nazariyalar umumiy holda tadbirkorlikning rivojlanishi aholi farovonligi darajasining oshishiga imkon yaratadi, degan g‘oyani ilgari suradi. Shunga ko‘ra, aksariyat mamlakatlarda tadbirkorlik faoliyati uchun qulay shart-sharoit va imkoniyatlar yaratish, uni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash va rag‘batlantirishga e’tibor qaratiladi. Biroq ayrim tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, mamlakatda tadbirkorlik faoliyatining kengayishi va buning natijasida iqtisodiy o‘sishning yuksalishi har doim ham tegishli ravishda aholi turmush farovonligining oshishiga olib kelmaydi. Jumladan, “so‘nggi o‘n yillik davr uchun hisoblangan YaIM va aholining ixtiyoridagi real pul daromadlari dinamikasi o‘rtasidagi korrelyatsiya Gretsiyada 0,90, Islandiyada 0,87, JARda 0,85, Portugaliyada 0,78, Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida 0,46 ga teng bo‘lgan” (Nikolayev, 2017). Bu esa, tadbirkorlik faoliyati rivojlanishining aholi farovonligi darajasining o‘sishi bilan uzviy bog‘liqlikda borishini ta’minlash amaliyotiga zaruratni kuchaytiradi.

Jahon iqtisodiyotida globallasuv jarayonlarining kuchayishi turli mamlakatlar o‘rtasida tashqi iqtisodiy aloqalarning mustahkamlanishi va iqtisodiyotlar o‘zaro bog‘liqligining o‘sishida ko‘rinmoqda. Hozirgi kunda mamlakat iqtisodiyotining iqtisodiy o‘sish sur‘atlari va aholisining farovonlik darajasi mamlakatning globallasuv va mehnat taqsimotining ustun jihatlaridan qay darajada to‘liq foydalana olishiga ko‘proq bog‘liq bo‘lib bormoqda.

“Tadbirkorlik ijtimoiy-iqtisodiy hodisa sanalib, u o‘z ichiga ijtimoiy munosabatlarni qamrab olgan. Unda huquqiy, ruhiy, tashkiliy, iqtisodiy va tarixiy tomonlar mavjud. Mazmuni va mohiyat jihatdan esa barcha uchun unumli faoliyatni anglatadi” (Jumayev, 2011).

XXI asr kelib jahon mamlakatlari iqtisodiyotining barqaror rivojlanishini ta’minlash, mamlakat iqtisodiy strategiyasini ishlab chiqishda unga ta’sir etuvchi har qanday omilni

5-May, 2026-yil

chetda qoldirmay sinchiklab o‘rganishni talab qilmoqda. Keyingi yillarda iste‘molchilarning didi, harid qobiliyatini oshishi ularning tovarlarga bo‘lgan yakka talablarini ko‘payishi ishlab chiqarishda seriyali ishlab chiqarishdan buyurtma asosida mahsulot ishlab chiqarishga o‘tish davri boshlandi. Xaridorlarni shaxsiy buyurtmalari asosida mahsulot ishlab chiqarishda kichik biznes korxonalarining ahamiyatini oshirib bormoqda. Kichik biznesni rivojlantirish bo‘rasida rivojlangan mamlakatlarda qator islohatlar olib borilmoqda. “Hozirgi kunda rivojlangan mamlakatlar iqtisodiy taraqqiyotida kichik biznes subyektlar raqobatbardoshligi ta‘minlashning samarali mexanzmini ishlab chiqilganligi ularning mamlakat yalpi ichki mahsulotidagi ulushi salmoqli bo‘lishiga olib keldi. Masalan, Yevropa Ittifoqida bu ko‘rsatkich 75%, AQShda qariyb 53%, Yaponiyada esa 55% ni, Rossiyada esa 23% ga yaqindir. Kichik biznes sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar soni Yevropa Ittifoqida – 22 million, Rossiyada – 6 million, AQShda – 23 million, Yaponiyada 9 milliondan ortiqdir” (Kovalenko, 2022).

### **Adabiyotlar sharhi**

Jahonning yetakchi ilmiy markazlari va mutaxassislari tomonidan tadbirkorlik faoliyatining aholi farovonligiga ta‘siri borasida ko‘plab ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Jumladan, tadbirkorlik faoliyatining innovatsion shakllarini rivojlantirish, tadbirkorlikning ijtimoiy funksiyasining kuchayishi, ijtimoiy tadbirkorlik kengayishining aholi farovonligiga ta‘siri, aholi farovonligi tushunchasi mazmunidagi o‘zgarishlar, aholi farovonligi darajasini baholashda ko‘p omilli yondashuvlar, iqtisodiyotning drayver soha va tarmoqlarini rivojlantirish orqali farovonlikni oshirish kabi yo‘nalishlarda tadqiqotlar amalga oshirilmoqda.

XX asrning 30-yillariga kelib “davlat farovonligi” konsepsiyasi shakllana boshladi. P.Titmus, E.Xansen, G.Myurdal, P.Samuelson, S.Leyden, D.Neyl, J.Gelbreyt va boshqalarning ishlarida ijtimoiy tartibda taqdim etiluvchi va moliyalashtiriluvchi xizmatlar ularni xususiy bozor taqdim eta olmagan holdagina ijtimoiy farovonlik tarkibiga kiritiladi.

Nobel mukofoti laureati J.Byukenen individlar o‘zlarining manfaatlarini tashkillashgan guruhlar orqali, mazkur guruhlar esa bu manfaatlarni davlat apparati vositasida jamiyatning qolgan a‘zolari orqali ro‘yobga chiqarishga urinishlaridan kelib chiqish lozim deb hisoblaydi.

“Farovonlikning mavjud nazariyalari ijtimoiy farovonlikning erishilgan darajasini izohlovchi sabablar sifatida quyidagilarni ko‘rsatadi: qulay geografik joylashuv, qulay iqlimiy sharoit, tabiiy resurslarning mavjudligi, aholi soni, inson kapitali, ilmiy-texnikaviy taraqqiyot, iqtisodiy rivojlanish darajasi, xalqaro iqtisodiy munosabatlar tizimidagi ishtirok va h.k. Farovonlik nazariyasining har biri o‘ziga xos qiziqarli bo‘lsada, o‘zining mukammalligini aniq namoyon eta olmadi” (Fedorchuk, 2013).

V.Zombartning ta‘kidlashicha: “Tadbirkorsiz hech narsa ro‘y bermaydi.... Ishlab chiqarishning barcha boshqa omillari – mehnat va kapital – tadbirkorga bog‘liq va uning ijodiy faoliyati evaziga hayot uchun intilish paydo bo‘ladi” (2018). Tadbirkorlik faoliyatisiz bozor iqtisodiyoti amal ham qila olmaydi, rivojlana ham olmaydi.

5-May, 2026-yil

Milliy iqtisodiyotimizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni tashkil etishda oilaviy tadbirkorlik alohida o‘rin tutadi. “Oilaviy tadbirkorlik oila a‘zolari tomonidan tavakkal qilib va o‘z mulkiy javobgarligi ostida daromad (foyda) olish maqsadida amalga oshiriladigan tashabbuskorlik faoliyatidir” (O‘RQ-327, 2021).

Amaldagi qonunchilikka ko‘ra, yuridik shaxs tashkil etgan holda amalga oshiriladigan oilaviy tadbirkorlikning tashkiliy – huquqiy shakli oilaviy korxonalar hisoblanadi.

### Tadqiqot metodologiyasi

Milliy iqtisodiyotda muhim o‘rin egallab borayotgan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasini yanada rivojlantirish hamda bu orqali ichki bozorni raqobatbardosh, sifatli va eksportbop mahsulotlar bilan to‘ldirish, yangi ish o‘rinlari yaratish hamda buning asosida aholi daromadlarini ko‘paytirish va barqaror iqtisodiy o‘rinishni ta‘minlash borasida ahamiyatga molik ishlar amalga oshirilmoqda. mazkur tadqiqotni amalga oshirishda ilmiy abstraksiya, tahlil va sintez, taqqoslash, induksiya va deduksiya metodlari qo‘llanildi.

### Tahlil va natijalar

O‘zbekiston iqtisodiyotining barqaror rivojlanishi omillaridan biri kichik biznes subyektlarining rivojlanishini ta‘minlashdan iborat. Bu tarmoq bozor kon‘yunkturasining o‘zgarishiga tez moslasha olishi, yangi ish o‘rinlari va daromad manbalarini yaratish orqali aholi bandligini ta‘minlash, o‘rta mulkdorlar sinfini shakllantirish bilan ajralib turadi.




**1-rasm. O‘zbekistonda faoliyat yuritayotgan kichik biznes subyektlari soni (2017-2024-yillar oralig‘ida)**

Tadbirkorlik faoliyati uchun qulay shart-sharoit yaratish, ularning erkin faoliyat yuritishini kafolatlash, ularni ro‘yxatga olishning soddalashtirilgan mexanizmini joriy etish,

# “DUNYO TA’LIMI SIFATINI OSHIRISHNING ILG‘OR USULLARI ILMIY JURNALI”

5-May, 2026-yil


tadbirkorlik va kichik biznes subyektlari uchun kredit resurslaridan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish borasida ko‘rilayotgan chora-tadbirlar ushbu natijalarga erishishda muhim omil bo‘ldi. Tadbirkorlik iqtisodiyotning muhim va ajralmas qismiga aylandi, shu nuqtayi nazardan globallashtirish sharoitida tadbirkorlik faoliyatining rivojlanishi bozor talabi sifatida iqtisodiy maydonga kirib keldi va o‘zining ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish bilan ta‘minlanishini doimiy ravishda ta‘minlashga qaratilgan. yoki iste‘molchi talabini vaqtincha qondirish va uni raqobat muhitini yaratishda muhim iqtisodiy va ijtimoiy ahamiyati nuqtayi nazaridan rivojlantirish maqsadga muvofiqdir.



## 2-rasm. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning YaIM, sanoat va qurilishdagi ulushi (2011-2023-yillar)

Xususan, 2017-yilda kichik biznes subyektlarining yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 65,3 foizni tashkil etgan bo‘lsa, 2020-yilga kelib 55,7 foizni, 2022-yilda esa 51,8 foizni tashkil etadi (4-rasm). Bundan ko‘rishimiz mumkinki, keyingi yillarda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining yalpi ichki mahsulotdagi ulushi kamayib bormoqda, lekin bu davrlarda yalpi ichki mahsulot hajmi ham ortganligini hisobga olish kerak.

Yuqoridagi rasmdan ko‘rinib turibdiki, qurilish sohasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning ulushi salmoqli bo‘lib, xususan, 2018-yilda 73,2 foizni tashkil etgan bo‘lsa, 2020-yilga kelib 72,5 foizni tashkil etgan. 2022-yil yakuni bo‘yicha qurilish sohasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning ulushi 71,6 foizni tashkil etdi. Shuningdek, sanoat sohasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik ulushining bir qator tendensiyalarini ko‘rish mumkin, xususan, 2019-yilda kamida 25,8 foizni tashkil etgan bo‘lsa, 2020-yilda bu ko‘rsatkich 27,9 foizni tashkil etgan.




**3-rasm. 2023 yilda xususiy sektirda faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning eng yuqori ulushga ega bo'lgan sohalar bo'yicha soni va ulishi**

Xususiy sektor bilan bir qatorda fuqarolik jamiyati subektlarini shakllantirish va kengaytirishga ham katta e'tibor qaratilmoqda. Siyosiy o'zgarishlarga muvofiq fuqarolik jamiyati institutlari qo'llab-quvvatlandi, shuningdek jamoatchilik nazorati mexanizmlari kengaytirildi.

Xususiy sektorda tadbirkorlik o'zining ixtirachiligi va yashirin bozor talabini tezda o'rganishi, harakatchanligi tufayli kam mablag' sarflab mahalliy ehtiyojni qondirish uchun turli zarur mahsulotlar ishlab chiqaradi va uni bozorga taklif qila oladi. Uning yana bir muhim ijobiy tomoni ishlab chiqarishda asosan mahalliy resurslardan foydalanadi, bu esa mahsulot tannarhining birmuncha arzon bo'lishini ta'minlaydi.

5-May, 2026-yil

Darhaqiqat, muttasil o‘zgarib turadigan bozor konyukturasi sharoitida xo‘jalik faoliyatida aniq yo‘nalishlarni tanlash muammosi vujudga keladi. Shuning uchun ham, tadbirkorlik subyektlari uchun qulay tadbirkorlik muhitini yaratilishi, takomillashtirilishi



yuqorida ko‘zda tutilgan maqsadlarga erishishga ko‘maklashadi. Bu esa hozirgi paytda eng zarur va dolzarb masala bo‘lib turmoqda.

#### **4-rasm. Asosiy turdagi dehqonchilik mahsulotlarining o‘shish sur‘ati**

Bozor iqtisodiyoti rivojlangan hamma mamlakatlarda tadbirkorlik faoliyati bilan biznesni rivojlantirishning zarur sharti xususiy mulkchilikdir, lekin tadbirkor bilan biznesmen hamisha ham xususiy mulk egasi bo‘lavermaydi. Tadbirkorlar bilan biznesmenlar orasida mulk egalari bilan bir qatorda menejerlar, ishlab chiqarish tashkilotchilari va ishga astoydil berilgan boshqa har qanday kishilar ham bor.

Tadbirkorlikning rivojlanishi, o‘z navbatida, bir qator sharoitlarning mavjud bo‘lishini taqozo etadi, Ular asosida umuman tovar ishlab chiqarishning umumiy ijtimoiy –iqtisodiy shart-sharoitlari yotadi.

Birinchidan, tadbirkor xo‘jalik yuritishda uning subyektlarida xo‘jalik yuritishning u yoki bu to‘rini tanlash bo‘yicha, ishlab chiqarish dasturini shakllantirishi, moslashtirish, manbalarni tanlash, resurs topish, mahsulot sotish, ularga baho belgilash, foydani tasarruf qilish va shu kabilar bo‘yicha ma’lum xuquq va erkinliklar mavjud bo‘lishini taqozo etadi.

Rivojlangan mamlakatlarda kichik va o‘rta biznesni qo‘llab-quvvatlash yuzasidan amalga oshirilgan chora-tadbirlar tavsifi keltirilgan. Ko‘rinib turibdiki, barcha rivojlangan mamlakatlar mazkur subyektlar faoliyatini rivojlantirishdan bir xilda manfaatdordirlar. (1-jadval).

#### **1-jadval**

# “DUNYO TA’LIMI SIFATINI OSHIRISHNING ILG‘OR USULLARI ILMIY JURNALI”

5-May, 2026-yil

## Xorijiy mamlakatlarda sanoat tarmog‘ida faoliyat yuritayotgan kichik korxonalarni aniqlash mezonlari tavsifi

Mamlakat	Kichik korxonalar uchun mezonlar	
	Band bo‘lganlar soni, kishi	Moliyaviy ko‘rsatkichlar
Koreya	300 gacha	kapital, 70 mln. AQSh dollaridan ko‘p bo‘lmasligi kerak
Yaponiya	300 gacha	2844 ming. AQSh dollari
Indiya	cheklovsiz	asosiy fondlarning aktiv qismining qiymati 55 ming AQSh dollarigacha
Ozarbayjon	50	cheklovsiz
Armaniston	200	Cheklovsiz
Belarus	100 dan kam	Cheklovsiz
Qozog‘iston	50 gacha	aktivlarning umumiy o‘rtacha yillik qiymati eng kam ish haqi miqdorining 60 000 barobaridan ortiq bo‘lmasligi lozim
Qirg‘iziston	50 kishi	oborotning maksimal xajmi 500 ming som
Moldova	20 dan 75 gacha	Cheklovsiz
Rossiya	100	yillik tushum 400 mln. Rublgacha
Tojikiston	50 kishi	Cheklovsiz
Ukraina	200	Cheklovsiz
O‘zbekiston	100 gacha	Cheklovsiz

Xorijiy mamlakatlarda sanoat tarmog‘ida faoliyat yuritayotgan kichik korxonalarni aniqlash mezonlarini tahlili asosida sanoatda kichik korxonalarni aniqlash mezonini sifatida xodimlar soni bilan bir qatorda, uning faoliyati moliyaviy natijalarini aks ettiruvchi ko‘rsatkichlardan ham foydalanish maqsadga muvofiqdir. Bunda korxonaning aktivlarining balans qiymati va daromadlilik hajmi ham inobatga olinishi maqsadga muvofiqdir. Buyuk

5-May, 2026-yil

Britaniya, Slovakiya, Meksika, Gretsiya kabi mamlakatlarda kichik biznes subyektning maqomini belgilashda bitta mezondan, yani ishlovchilar soni mezonidan foydalaniladi. Ikkinchi guruh mamlakatlarda esa ushbu maqomni belgilashda ikkita mezondan-ishlovchilar soni va subyektning oboroti mezonlaridan foydalaniladi.

### **Xulosa va takliflar**

Keyingi yillarda kichik va xususiy tadbirkorlik subyektlari soni yildan-yilga ortib bormoqda. Ayni paytda ularning iqtisodiyot tarmoqlaridagi ulushi, ishlab chiqarilayotgan mahsulot hajmi ortib bormoqda. Uning yalpi ichki mahsulotdagi ulushining pasayish tendensiyasi tashvishli holat, chunki ko‘plab rivojlangan mamlakatlar tajribasidan ko‘ramizki, kichik biznesning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 50 foizdan ortiqni tashkil etadi. Qurilish sohasida xususiy sektorning ulushi yildan-yilga ortib, keyingi yillarda 70 foizdan oshayotgani quvonarli hol.

Binobarin, kichik biznes subyektlariga qulay shart-sharoit yaratish, ularni zarur energiya resurslari bilan o‘z vaqtida ta‘minlash g‘oyat muhim omil bo‘lmoqda. Bularning barchasini bozor iqtisodiyoti tamoyillari asosida amalga oshirish muhim, chunki imtiyozli narxlar sharoitida tadbirkorlik subyektlari har doim ham resurslardan unumli foydalanishga intilavermaydilar va buning natijasida resurslar yetishmovchiligi sabablaridan biri hisoblanadi. yoqilg‘i-energetika resurslari. Biz yuqorida ko‘rdikki, tadbirkorlar bunday masalalarni to‘g‘ri tushunsalar, resurslar narxini oshirishga rozi bo‘lishadi.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari soni ko‘paygani sari iqtisod uchun foydalidir. Tadbirkorlik faoliyati, iqtisodiyotdagi tarkibiy o‘zgarishlar jarayoni ishlab chiqarish tarkibining ma‘lum darajada nisbatini keltirib chiqaradi va xo‘jalik subyektlarida iqtisodiy faoliyatning ixcham turini tanlashga, bozordagi o‘zgarishlarga javoban o‘z faoliyatini tez tashkil etishga moyillikni shakllantiradi. Bunday holda, tadbirkorlik faoliyatining holati oshadi.

Bozor iqtisodiyotiga o‘tish sharoitida bozor infratuzilmalarining roli ortib bormoqda. Bu borada tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishda bozor infratuzilmasini takomillashtirish ham muhim ahamiyatga ega. Xususan, bankmoliya tizimi, soliq va energetika tizimlarini isloh qilish, tadbirkorlik subyektlarini energiya resurslari bilan o‘z vaqtida va sifatli ta‘minlash muhimligi bilan ajralib turadi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:**

1. “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-sonli Farmoni.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub’ektlari eksportini qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasi faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-№2507-sonli Qarorii. 2016 yil 28 mart.

## “DUNYO TA’LIMI SIFATINI OSHIRISHNING ILG‘OR USULLARI ILMIY JURNALI”

---

5-May, 2026-yil

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Xususiy mulk, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni ishonchli himoya qilishni ta‘minlash, ularni jadal rivojlantirish yo‘lidagi to‘siqlarni bartaraf etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-№ 4725-sonli Farmoni. 2015 yil 15 may.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining "Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni yanada rivojlantirish uchun qulay ishbilarmonlik muhitini shakllantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-№4354-sonli Farmoni. 2011 yil 24 avgust.

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Tadbirkorlik sub’ektlarini tekshirishlarni yanada qisqartirish va ular faoliyatini nazorat qilishni tashkil etish tizimini takomillashtirish borasidagi qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” gi PF-№ 4296-sonli Farmoni. 2011 yil 4 aprel.

6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasining 2016 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari prognozi va Davlat byudjeti parametrlari to‘g‘risida”gi PQ-№2455-sonli Qarori 2015 yil 22 dekabr.